

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Jurnalistinkaga oid milliy audiovizual kontentlarni raqamlashtirish va ommalashtirish 	Tadqiqotning shakli: Jurnalistinkaga oid milliy audiovizual kontentlarni raqamlashtirish va ommalashtirish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - MTRK “Oltin fondi”dagi milliy audiovizual va multimedia materiallar aniqlanadi hamd tahlil qilinadi; - hozirga qadar raqamlashtirilmagan noyob audiovizual va multimedia materiallarni aniqlanadi; - milliy audiovizual mahsulotlarni raqamlashtirish orqali tayyorlangan yili, janr, mavzu, format, radiokanal hamda telekanallarga ko'ra alohida tartibda ilmiy konservatsiya qilinadi; - raqamlashtirilgan audiovizual kontentni formatiga ko'ra tizimlashtirilgan bo'limlardan tashkil topuvchi, har birini izlab topish imkonini beruvchi mobil ilova yaratiladi; - MTRK “Oltin fondi”da saqlanayotgan durdona audiovizual materiallarni (radioeshittirish, teleko'rsatuv, radiospektakl, telespektakl, telefilm, radioserial, teleserial, videoklip), shuningdek, yoshlar ma'naviyati va madaniyatini yuksaltiruvchi media kontentlarni mualliflik huquqi buzilmagan holda ijtimoiy tarmoqlar orqali ommalashtiriladi va targ'ib qilinadi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida sinovlardan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.